

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRIVCHI OMIL

M.O. Yodgorova

Bux MTI assistenti

Sh.Sh.O'ktamova

120-23 MSM guruh talabasi

O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan bormoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi – har tomonlama rivojlangan barkamol insondir.

O'quvchilarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi. Ajdodlarimiz ma'naviy- ahloqiy tarbiyani qanday qilib yosh avlodga o'rgatish - ularni komillikka yetaklash yo'llarini, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi orqali shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishini ko'zda tutadi. Shaxs uzluksiz ta'limda va kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmatlarining iste'molchisi hamda ishlab chiqaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda oliy ta'limning belgilangan vazifalaridan biri yuqori saviyada o'qitishni ta'minlash va malakali kadrlarni zamonaviy ta'lim va kasb-hunar dasturlari asosida tayyorlashdir. Muallimlik kasbining sharafliligi, nafaqat, uning o'qituvchi, turli bilimlarni o'rgatuvchi va mohir tarbiyachi bo'lganligi uchungina emas, balki uning o'zi tanlagan kasb-hunar yo'nalishidagi barcha mutaxassisliklar bo'yicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bo'lgan fundamental fanlarni hamda o'qitish va tarbiya berishni, psixologiya va pedagogika asoslarini a'lo darajada egallagan bo'lishi shart. Oliy ta'lim o'qituvchisining faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta'lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini ochish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Oliy maktab o'qituvchisining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo'lishi lozim va u doimo: “Nima uchun o'qitish kerak?”, “Qanday o'qitish kerak” degan savollarga javob topishi zarur.

Yosh pedagoglar mutaxassislik bo'yicha mavjud bilimlaridan tashqari o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekanlar, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya va o'qitish metodikalariga doir zarur pedagogik bilimlarni egallagan bo'lishlari kerak. Ana shularni e'tiborga olgan holda, yosh pedagoglarning tayyorlashda asosiy masalalar quyidagicha belgilanadi:

- o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish;

- ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglashga yo'naltirilgan yangi kasbiy tafakkurni shakllantirish;

- o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash;

- o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlariga yaqinlashtirilgan uslublar tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash.

Kelgusida respublikamizning ta'lim muassasalarida faoliyat olib borishi mo'ljallanayotgan yosh pedagog kadrlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgatish, pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarini o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llay olishga o'rgatish, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchi – talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi "Ta'lim to'g'risidagi" qonun talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchi-talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari – interfaol uslublar, innovasion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchi-talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Shu bilan birga ta'lim-tarbiya jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'tmish allomalarimizning g'oya va qarashlaridan foydalanish o'quvchi-talabalarni o'qitish va tarbiyalashni yanada samarali bo'lishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kamolova, M. X., Kamalova, M. X., Bozorova, S. N., & qizi Ubaydulloyeva, S. L. (2023). XALQ PEDAGOGIKASI VA XALQ MUTAFFAKKIRLARINING PEDAGOGIK G'UYALARI. SCHOLAR, 1(31), 151-155.
2. Ёдгорова, М. О. (2018). Современное инженерное образование и инновации в подготовке инженеров. Молодой ученый, (9), 147-149.
3. Ёдгорова, М. О. (2012). Современные требования к преподавателю профессионального колледжа. Молодой ученый, (1-2), 86-87.
4. Ёдгорова, М. О. (2018). Информационные технологии в учебном процессе на смену традиционной методике. Молодой ученый, (9), 149-152.
5. Baxtiyrovna, D. M. (2022). Food safety management. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 8, 64-67.
6. Bakhtiyarovna, D. M., Shakhidovich, S. S., Khalilovich, M. K., Mukimovna, A. Z., & Karimovna, Y. N. (2020). Investigation Of The Effect Of Plant Extracts On The Rheological Properties Of Wheat Dough. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 2(09), 41-47.
7. Glushenkova, A. I., Sagdullaev, S. S., & Davlyatova, M. B. (2017, September). Oil cake of sesamium Acad. In S. YU. Yunusov institute of the chemistry of plant Substances AS RUz «12 th International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds (p. 202).